

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z YASASH USULLARINING KORPUS LINGVISTIK TAHLILI

Normamatova Shaxzoda

O'zMU Xorijiy til va adabiyoti (ingliz) yo'nalishi

2- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida so'z yasash usullarining korpus lingvistikasi asosida taqqosiy tahlili berildi. Tadqiqot davomida ingliz tilidagi derivatsion va kompozitsion so'zlar, xususan prefixlar va suffixlar yordamida yasalgan leksik birliklar korpus asosida o'rganildi. O'zbek tili uchun esa mavjud matnlar korpusi asosida asosiy qo'shimcha va so'z yasovchi modellar tahlil qilindi. Tahlil natijalari har ikkala tildagi morfologik modellar orasidagi o'xshashlik va farqlarni ochib berdi.

Kalit so'zlar: suffikslar, prefikslar, derivatsiya, kompozitsiya, affiksatsiya, korpus lingvistikasi

Annotation: This article presents a comparative analysis of word formation methods in English and Uzbek based on corpus linguistics. During the research, derivational and compound words in English—particularly lexical units formed through prefixes and suffixes—were studied using corpus data. For Uzbek, major affixes and word-formation models were analyzed based on the available text corpus. The results of the analysis revealed similarities and differences between the morphological models of both languages.

Key words: suffixes, prefixes, derivation, **composition**, **affixation**, **corpus linguistics**,

Har qanday tabiiy tilning leksik boyligi doimiy rivojlanish va yangilanish jarayonida bo'ladi. Bu rivojlanishning muhim omillaridan biri – yangi so'zlar yasash orqali til imkoniyatlarini kengaytirishdir. So'z yasash (word formation) – mavjud leksik birliklar asosida yangi so'zlar hosil qilishning morfologik, sintaktik va semantik jihatlarini o'rganuvchi jarayondir. Har bir til bu jarayonda o'zining grammatik tizimi, morfologik modeli va madaniy xususiyatlariiga tayangan holda rivojlanadi.

So‘z yasash masalasi tilshunoslikda muhim mavzulardan biri bo‘lib, u lug‘at boyligi, stilistika, tarjima va til o‘qitish kabi ko‘plab sohalar bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillarini taqqoslab o‘rganish, tilshunoslikda umumiy va xususiy qonuniyatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tili asosan analistik tizimli til sifatida prefix va suffixlar yordamida yangi so‘zlar yaratishda faol bo‘lsa, o‘zbek tili agglutinativ xususiyatga ega bo‘lib, qo‘shimchalar orqali so‘z yasash imkoniyatlari kengdir.

So‘nggi yillarda korpus lingvistikasi tilshunoslikning ilg‘or tarmoqlaridan biri sifatida keng qo‘llanila boshladi. U real til matnlari asosida til birliklarini aniqlash, ularning ishlatilish chastotasi va kontekstual xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi. Korpusga asoslangan yondashuv so‘z yasashning tabiiy til muhitidagi real ko‘rinishlarini aniqlashda ayniqsa foydalidir.

Til – jamiyatdagi ijtimoiy muloqot vositasi bo‘lib, uning asosiy birliklaridan biri bu so‘zdir. Har qanday tilda so‘zlar o‘zining lug‘aviy boyligini kengaytirish uchun muayyan so‘z yasash usullariga tayanadi. So‘z yasash – bu mavjud til birliklari asosida yangi so‘zlar hosil qilish jarayonidir va u har bir tilning ichki qonun-qoidalariga tayanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasashning morfologik, sintaktik hamda semantik jihatlari mavjud bo‘lib, ularning har biri tilning umumiy strukturasi va leksik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

So‘z o‘zgartirish va so‘z yasash qoidalari va grammatik konstruksiyalami tuzishda qo‘llanadigan usullari majmuini **tilning grammatik vositalari** [1.103] deb yuritiladi. Bu tartib-qoidalalar yig‘indisi tilning grammatik (aniqrog‘i morfologik) turini aniqlashda yordam beradi. Jahondagi tillar grammatik vositalaming qaysi birini ko‘proq qo’llashi va bu vositalardan qaysinisi shu tilda borligi bilan farqlanadi. Turkiy tillari affiksatsiyaning ko‘p qo’llanishi bilan ajralib tursa, vyetnam tilida affiksatsiya deyarli yo‘q, xitoy tilida juda kam uchraydi. Ingliz tilida esa o‘zbek tili bilan deyarli bir xil va affikslardan juda keng foydalilanadi.

So‘zlarning ma’nosini tahlil qilishda ularni tashkil etuvchi qismlarga e’tibor beriladi: ya’ni o‘zak, ya’ni so‘zning asosiy leksik ma’nosini ifodalovchi qism va unga qo‘silib, bu ma’noni to‘ldiruvchi yoki o‘zgartiruvchi affikslar ajratiladi. Masalan, “**o’qituvchilar**” so‘zini olaylik: “o’qi” – bu so‘zning o‘zagi, “t” – fe’lning orttirma nisbat shakli “-uv” fe’lning harakat nomi shakli, “-chi”- so’z yasovchi affiks, “lar” esa ko’plik shaklini ifodalovchi affiks hisoblanadi. Affiks (lotincha affix — “qo‘shilgan” degan ma’noni anglatadi) [1.102] — bu so‘zning yangi shaklini yasash yoki uni grammatik jihatdan o‘zgartirishda ishlatiladigan birliklar to‘plamidir. Affikslar so‘zda egallagan o‘rniga va tildagi funksiyasiga qarab turkumlanadi. Ular joylashuviga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Prefiks – so‘zning boshiga qo‘shiladigan affiks (masalan, **nohaq**, **bemaza kabi**);
2. Suffiks – so‘zning oxiriga qo‘shiladigan affiks (masalan, **bilim**, **do‘stona**, **yuruvchi**);
3. Infiks – so‘zning ichki qismiga, o‘zak bilan boshqa qismlarni bog‘lash uchun qo‘shiladigan affiks (masalan, **dardisar**, **gultojixo’roz**, **ishqiboz**, kabi).

Ingliz tilida ham ushbu affikslarga misollar keltirishimiz mumkin:

1. Prefix- **unhappy**, **rewrite**, **disagree**, **dislike**, **mislead**, **misplace**
2. Suffix- **quickly**, **happily**, **kindness**, **reliable**, **development**, **teacher**
3. Infix- in "**abso-bloodily-lutely**", in "**un-damn-believable**".

O‘zbek tilida so‘z yasashga oid tadqiqotlarda ko‘pincha “kompozitsiya usuli” tilga olinadi va u samarali so‘z yasash yo‘li sifatida ko‘rsatiladi. Biroq, agar bu holatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tilining materiallari asosida tahlil qilsak, aslida bu tilda “kompozitsiya usuli” deb atash mumkin bo‘lgan aniq so‘z yasash yo‘li mavjud emasligi ayon bo‘ladi. Umuman olganda, kompozitsiya usuli deganda, ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarni birlashtirish orqali yangi so‘z hosil qilish tushuniladi [2.8]. O‘zbek tilida esa bunday birikmalar odatda grammatik shaklga ega bo‘lib, ular orasidagi grammatik bog‘liqlik aniq sezilib turadi. Kompozitsia usuli ham ingliz tilida keng tarqalgan bo‘lib, u tilning leksik boyligini kengaytirishga xizmat qiladi. Misol

tariqasida, **toothbrush**, **notebook**, **blackboard**, **babysitter**, **airport** va boshqa so'zlarni, o'zbek tilida esa, **ko'ksaroy**, **oqsoqol** va boshqa so'zlarni keltirishimiz mumkin.

Har bir tilda bu jarayon tilning morfologik tuzilishiga, ya'ni grammatik tizimi va so'z tuzilishiga bog'liq. Ingliz va o'zbek tillari bu borada o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, sezilarli farqlar mavjud, albatta. Chunki ular turli xil til oilalariga mansub va strukturalari ham bir-biridan ancha farq qiladi. Eng muhim farqlardan biri shundaki, o'zbek tili agglutinativ til sanaladi, ya'ni unda so'zlar turli qo'shimchalarini ketma-ket qo'shish orqali yasaladi. Har bir qo'shimcha alohida ma'noga ega bo'lib, so'zning lug'aviy yoki grammatik shaklini belgilaydi. Masalan, "yoz" fe'lidan "yozuvchi", "yozuvchilik", "yozuvchilikdan" kabi bir nechta yasalma so'zlar hosil qilish mumkin. Aksincha, ingliz tili analitik til bo'lib, bunda grammatik ma'nolar ko'proq yordamchi so'zlar yordamida ifodalanadi va so'z yasashda cheklangan miqdordagi prefiks va suffikslardan foydalaniladi. Ingliz tilida ham so'z yasash mavjud bo'lsa-da, u o'zbek tiliga nisbatan kamroq morfologik imkoniyatlarga ega. Misol uchun, "write" (yozmoq) fe'lidan "writer" (yozuvchi), "writing" (yozish), "rewriting" (qayta yoziш) kabi shakllar hosil qilinadi.

So'z yasash (derivatsiya) — tilshunoslikda yangi leksik birliklar hosil qilish jarayoni bo'lib, har bir tilning morfologik tizimi va grammatik tuzilishiga bog'liq. Bu hodisani chuqur va tizimli o'rganish uchun hozirgi zamon lingvistikasida korpus lingvistikasi muhim vosita sifatida ishlatilmoqda. Til korpuslari — bu tabiiy nutq namunalarini o'z ichiga olgan katta hajmdagi elektron matnlar to'plami bo'lib, ular orqali til hodisalari statistik va empirik usullar bilan o'rganiladi. Ushbu yondashuv ingliz va o'zbek tillaridagi so'z yasash usullarini amaliy, hajman keng, avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, ingliz va o'zbek tillarida so'z yasash usullarini korpus asosida tahlil qilish ushbu tillarning morfologik tizimlari o'rtasidagi

farqlarni aniqlashda muhim metod hisoblanadi. O'zbek tili agglutinativ til sifatida keng qo'shimchalar tizimiga ega bo'lib, so'z yasash jarayoni morfologik jihatdan serqirra va faol tarzda amalga oshiriladi. Ingliz tili esa analitik tuzilishga ega bo'lib, prefiks va suffikslar yordamida so'z yasashni amalga oshiradi. Har ikki tilda ham derivatsiya hodisasi orqali so'z turkumlari o'zgaradi, yangi ma'nolar hosil bo'ladi va leksik birliklar boyiydi. Ingliz tilidagi rivojlangan til korpuslari derivatsiya hodisalarning stilistik va funksional jihatlarini chuqur o'rghanishga xizmat qilayotgan bo'lsa, o'zbek tilida ham yangi yaratilayotgan korpuslar bu yo'nalishda istiqbolli imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillaridagi so'z yasash tizimlarini korpus asosida tahlil qilish tilshunoslikning nazariy va amaliy yo'nalishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, so'z boyligi, morfologik tuzilish, leksik innovatsiyalar va stilistik uslublar bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. T., 2010. 102-103 b
2. Azim Hojiyev. O'zbek tilida so'z yasalish tizimi. "O'qituvchi" nashriyot- matbaa ijodiy uyi. T., 2007. 8 b